

## “Olmaliq KMK” AJning

“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” loyihaci to‘g‘risida

### MA'LUMOTNOMA

01.01.2025 y.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son qarori

**Loyihaning quvvati:** yillik **917 ming tonna** mis konsentrati va **2,5 ming tonna** molibden konsentrati.

**Loyiha qiymati:** **4 620,4 mln dollar**

**Joylashgan manzili:** Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, “Olmaliq KMK” AJ.

**Xomashyo bazasi:** Qalmoqqir, Yoshlik-1 konlari rudalarini qayta ishlash hisobiga ishlab chiqariladigan mis-molibden konsentratidan olinadigan mahsulotlar (mis katodi, oltin, kumush).

**Yaratiladigan ish o‘rni:** **5 647 ta**

**Elektr energiyasi sarfi:** yillik **568,7 mln Kvt/s**

**Gaz iste‘moli xajmi:** yillik **3,3 mln m<sup>3</sup>**

**Tovar mahsulot:** yillik **3 594,5 mlrd so‘m**

**Eksport ko‘rsatkichlar:** yillik **241,6 mln dollar**

**Loyihani amalga oshirish muddatlari:** **2017-2025 yillar**

#### **1. TSOT-ma‘dan obyektini qurish.**

TSOT-ma‘dan qurilish maydonchasida **5,44 mln kub m** (99 foiz) tuproq ishlari, **22,2 ming tonna** (97 foiz) armaturalash va **147,3 ming kub m** (98 foiz) beton ishlari bajarilgan, **1 214 ta** (91 foiz) stav, **19,1 ming ta** (89 foiz) tayanch rolidlari va **10,4 ming m** (59 foiz) konveyer tasmasi o‘rnatilgan bo‘lib, qurilish ishlariga **590 ta** ishchi xodim va **28 ta** maxsus texnikalar jalb qilingan.

**TSOT-ma‘dan** qurilishi loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari jami - **79 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda:

**1-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU)** bo‘yicha ishlar jami **67 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – 96 foiz, metall konstruksiyalar 5 foiz va asosiy texnologik uskunalar montaji **81 foiz;**

**2-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU)** bo‘yicha ishlar jami **83 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – 97 foiz, metall konstruksiyalar montaji – 73 foiz va asosiy texnologik uskunalar montaji – 84 foiz;

**3-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU)** bo‘yicha ishlar jami **99 foiz**, **302100-CV-101 rusumli konveyer** bo‘yicha **92 foiz** hamda **302100-CV-201 rusumli konveyer** bo‘yicha ishlar jami **71 foizga** bajarildi.

Shu bilan birga qurilish maydoniga **98 foiz** asosiy texnologik uskunalar yetkazib berilgan bo‘lib, **5 to‘plam “AVV”** (Germaniya) konveyerlarni boshqarish tizimi (*Rio shkaflar*) 2024 yil 30 dekabrda yetkazilishi kutilmoqda.

#### **2. 3-MBFni qurish.**

3-MBFni “foydalanishga tayyor holda topshirish” sharti bilan qurish ishlari “**Olmaliq KMK**” **AJ** hamda “**Uralmashzavod**” **OAJ** va “**Enter Engineering**” konsortsiumi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Qurilishda texnik nazoratni amalga oshirishga “Worley Parsons” xorijiy kompaniyasi jalb qilingan.

Qurilish maydonida **761,4 ming kub m** (96 foiz) beton ishlari, **107,4 ming tonna** (99 foiz) armaturalash ishlari bajarildi, **27,4 ming tonna** (74 foiz) texnologik uskuna va **54,7 ming tonna** (86 foiz) metall konstruksiya montaj qilindi.

**3-MBF** qurilishi loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari jami - **66 foizga** bajarilgan bo'lib, shu jumladan:

Yirik maydalangan ma'dan ombori (CKDR) bo'yicha ishlar jami **94 foiz**, o'rta holda maydalash binosi (KSD) – **89 foiz**, o'rta holda g'alvirlash binosi (KSG) – **85 foiz**, kichik holda maydalash binosi (KMD) – **83 foiz**, kichik holda g'alvirlash binosi (KMG) – **84 foiz**, ma'dan tayyorlash binosi (KRP) – **66 foiz**, bosh flotatsiya binosi – **51 foiz**, mis-molibden konsentratini quyultirish uchastkasi – **67 foiz**, filtrlash va konsentratni yuklash binosi – **68 foiz**, shuningdek, 1 va 3-bosh pasaytiruvchi nimstansiyalar (GPP) – **98 foiz** va 2-GPP – **80 foiz** hamda ma'muriy-maishiy bino (ABK) – **84 foiz**, maishiy bino (BK) bo'yicha ishlar **86 foizga** bajarildi.

3-MBF qurilishi maydoniga jami **12 348 ta** ishchi xodim (*yordamchi xodimlar va metall konstruksiyalarni tayyorlash uchastkasi ishchilari hisobga olinmaganda*) va **790 ta** maxsus texnika jalb qilindi.

Shuningdek, **97 foiz** asosiy texnologik uskunalar qurilish maydoniga yetkazib berilgan bo'lib, **6 to'plam “Dalian Levvie Technology”** (Xitoy) HPGR gidravlik kuchlanish qurilmasini 2024 yil 30 dekabrda yuklab jo'natish prognoz qilinmoqda, **“Weir”ning** (Turkiya) **1 to'plam** gidrotsiklon qurilmasi ishlab chiqarishni boshlash kutilmoqda va **16 to'plam “INTERTECH”** (Serbiya) tegirmon gravitatsiya konsentratlari yuklab jo'natishga tayyorlanmoqda, **1 to'plam “Metso”** quritgichini ishlab chiqarishni boshlash kutilmoqda.

### **3. 3-MBF infratuzilma obyektlarini qurish.**

**Qoldiqlarni saqlash xo'jaligida** (*1-xarita*) to'g'on poydevorini qurish bo'yicha **18,4 mln kub m** (32 foiz) (*shundan 10,1 mln kub m to'g'on qurilishi bo'yicha*) tuproq ishlari bajarildi va **11,3 ming m** (39 foiz) quvur yotqizildi. Mazkur ishlarga **42 ta** ishchi xodim va **331 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

**Tashqi suv ta'minoti obyektlari** qurilish maydonida **86,6 km** (77 foiz) suv quvurlari yotqizildi, shuningdek, **1,56 mln kub m** (84 foiz) tuproq ishlari, **2,2 ming tonna** (87 foiz) armaturalash, **19,6 ming kub m** (72 foiz) beton ishlari bajarildi. Ushbu ishlarga **239 ta** ishchi xodim va **61 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

Hozirgi kunda, **3-MBF va uning infratuzilma obyektlari** qurilishiga jami **13 219 ta** ishchi va **1 210 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

### **4. Moliyalashtirishni jalb qilish.**

**1,0 mlrd** dollari miqdordagi qarz mablag'lari jalb qilingan bo'lib, shundan Loyiha ofisi obyektlari perimetri doirasida **677,9 mln** dollar va **“Olmaliq KMK” AJ** doirasida **322,1 mln** dollar o'zlashtirilgan.

**“Международные проекты развития” МСН**Jdan **712,0 mln** yevro miqdorida qarz mablag'lari jalb qilindi. Ushbu mablag'lar hisobidan **671,1 mln** yevro (**719,9 mln dollar** ekv.) jalb qilinib, **656,6 mln** dollar 3-MBF qurilishiga yo'naltirildi.

3-MBF, Qoldiqlarni saqlash xo'jaligi (*1-xarita*) va Tashqi suv ta'minoti obyektlarini qurish bo'yicha tuzilgan umumiy **2 287,8 mln** dollar qiymatidagi **ERS-shartnomalar** doirasida jami **1 984,4 mln** dollar, jumladan, 3-MBF bo'yicha **1 816,5 mln** dollar, Qoldiqlarni saqlash xo'jaligi – **74,1 mln** dollar va Tashqi suv ta'minoti bo'yicha **93,7 mln** dollar miqdorida to'lovlar amalga oshirildi.

### 5. Amalga oshiriladigan ishlar:

1. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining **2024 yil 18 sentyabrdagi 98-son** bayoni **6-ilovasi 34-bandiga** muvofiq fabrikani foydalanishga topshirish muddati **2025 yil 25 iyulga qadar** uzaytirilgan.

2. "Olmaliq KMK" AJ Kuzatuv kengashi majlisining **2024 yil 12 noyabrdagi 32-son** bayoniga asosan ERS-shartnomada belgilangan ishlarni yakunlash muddati **2025 yil 30 iyungacha** qadar uzaytirilgan.

### 6. Asosiy muammoli masalalar:

#### TSOT-ma'dan bo'yicha:

1. **2024 yil 30 dekabrga** qadar TSOT-ma'dan konveyer tizimlari bo'yicha "FLSmidth" kompaniyasi tomonidan qolgan **uskunalarni yetkazish**.

2. **2024 yil 30 dekabrga** qadar qolgan **300 tn** hajmda **metall konstruksiyalar** tayyorlanishini ta'minlash.

#### 3-MBF bo'yicha:

1. **J.y. dekabrda** materiallar (*kabel, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika uskunalari, futerovka, suzuvchi nasos stantsiya va flotomashinalar uchun kompensatorlar, HPGR gidroagregatlari, ohak zavodi uchun greyfer kran, yopish va nazorat klapanlari (ZRA), ASUTP elektr shkaflari va boshqalar*) yetkazib berilishini ta'minlash.

2. **Nazorat-axborot o'lchov tizimi hamda muhandislik-texnik himoya vositalari majmuasi, nazorat o'lchov asboblari va avtomatika uchun material va uskunalari (64 ta) hamda suzuvchi nasos stantsiya va yong'indan ogohlantirish tizimi uchun shiber klapanlar yetkazib berishga shartnoma tuzish.**

3. **Qo'shimcha 3 mingdan ortiq ishchi xodimlarni qurilish maydoniga jalb qilish.**

#### Qoldiqlarni saqlash xo'jaligi (1-xarita) bo'yicha:

1. **Futerovkalan quvurlar va novlar, yopish na nazorat klapanlari, kompensatorlar va boshqa materiallarni yetkazish;**

2. **Bugungi kunda to'g'on qurish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan tuproq ishlari hajmi 26 mln kub m tashkil qilib, bunda ishlarni bajarish uchun j.y. dekabrda 2,9 mln kub m hajmda tuproq ishlari amalga oshirish, buning uchun qo'shimcha 180 ta maxsus texnika safarbar qilish hamda yonilg'i va sarflovchi materiallar bilan ta'minlash.**

#### Tashqi suv ta'minoti bo'yicha:

1. **Uskuna va materiallarni (110/10 kV, 35/6 kV nimstansiya, yopish va nazorat klapanlari, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika, elektrika) j.y. dekabrda yetkazish;**

2. **J.y. dekabrda qo'shimcha 600 nafar ishchi xodim hamda 90 ta maxsus texnika bilan ta'minlash.**

7. **"Yoshlik I" konida karerni qurish va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish.**

Karerni qurish bo'yicha loyiha boshidan:

**210,64 mln m<sup>3</sup>** (yil boshidan **36,76 mln m<sup>3</sup>**) kon yuzasini ochish ishlari bajarildi (*ishlar 2 smenada tashkil etilib, 1 800 nafar ishchi-xodimlar va 400 ta texnika ishlamoqda*) hamda **41,63 km** temir yo'llar yotqizildi;

**602 tadan ortiq** (*466,0 mln dollar*) kon texnikasi (*54 ta 130 tonnalik, 29 ta 220 tonnalik BelAZ va 5 dona NMT-240 TEREK-KRANTAS 220 tonnalik samosvallari, 33 ta ekskavator, 23 ta burg'ilash uskunasi, 12 ta aralashtirish-zaryadlash mashinalari*) **285 ta** temir yo'l texnikasi (*1 ta elektrovoz, 5 ta teplovoz, 212 ta dumpkar, 7 ta yo'l qurish texnikasi*) shuningdek **192 ta yordamchi texnika**) xarid qilindi.

#### Siklli oqim texnologiyasini ("TSPT - 2 poroda")

yiliga **20 mln m<sup>3</sup>** dan oshiq bo'sh tog' jismlarini tashuvchi Siklli oqim texnologiyasini ("TSPT-poroda") qurish uchun **5,9 mln m<sup>3</sup>**dan (rejaga nisbatan 80,8 foiz) ortiq yer ishlari amalga oshirildi;

Ishtirokchilardan kelgan TTT ko'rib chiqish natijasida va xarid komissiyasining 2024 yil 12 iyuldagi 357007-son bayonnomasi asosida tenderda «TMX Consulting Ltd» kompaniyasi g'olib deb topildi.

Shartnoma tuzildi va loyihalash ishlari boshlangan.

#### **Kon sanoat maydonchasi:**

- "Yoshlik I" va "Qalmoqqir" konining TK-1 va TK-2 sanoat maydonchalari qurilishi bo'yicha loyiha hujjatlari bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan.

- "Yoshlik I" sanoat maydonchasining yer ishlari to'liq bajarilgan. Perimetral to'siq devori **100 foizga** bajarildi.

Binolarning poydevor qismi **90 foizga** bajarilgan.

- "Qalmoqqir" sanoat maydonchasiga olib boruvchi 1,2 km. yo'l to'liq tugallangan. Xozirda "Qalmoqqir" kotlavan va transhey kovlash ishlari **80 foizga** bajarildi.

"Qalmoqqir" sanoat maydonchasining perimetrial to'siq devori **100 foizga** bajarildi.

- GSHO sanoat maydonchasi qurilishi bo'yicha loyiha hujjatlari bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan.

Bino va inshootlar qurilishi **95 foizga** bajarilgan.

Hozirda binolarning uskuna va jihozlari olib kelinmoqda.

Kon va bo'sh tog' jismlarini tashuvchi siklli oqim texnologiyasi uskunalarini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi TP-8 va TP-9 nimstansiyalari bo'yicha pudratchi "**O'zelektroapparat-Electroshield**" qo'shma korxonasi tomonidan loyiha xujjatlari bajarildi. Pudratchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari 2024 yil tugatilinadi va foydalanishga topshiriladi.

"**TN-8**" qurilishi bo'yicha vertikal maydoni tayyorlash ishlari tugatilgan va dalolatnomalar topshirilgan.

- **2 dona 80 MVA** transformatorlar o'rnatilgan.

Qurilish montaj ishlari **100 foizga** bajarilgan.

Pusko-naladka ishlari olib borilmoqda.

Joriy yilning 30 avgust sanasida ishga tushirildi.

- "**TN-9**" qurilishi bo'yicha vertikal maydonini tayyorlash ishlari tugatilgan va dalolatnomalar topshirilgan.

- **2 dona 63 MVA** transformatorlar transformatorlar o'rnatilgan.

Qurilish montaj ishlari **95 foizga** bajarilgan.

Qurilish ishlari **100 foizga** bajarilgan.

Pusko-naladka ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yilning 1 choragida ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda.

#### **8. 650 megavatt quvvatli tashqi elektr ta'minoti obyekti qurilishi**

**Elektr ta'minoti** obyektlarini qurish bo'yicha "**O'zelektroapparat-Electroshield**" qo'shma korxonasi tomonidan **10 km 500 kVli** elektr liniyasining qurilishi **100 foizga** bajarildi.

Shuningdek, 500 kV raqamli podstansiyasida qurilish-montaj ishlari va asosiy uskunalarni yetkazib berish **100 foizga** bajarildi. Obyekt 2023 yil dekabr oyida qurilish ishlari yakunlanib, bugungi kunda tarmoqqa ulash va sozlash ishlari amalga oshirilmoqda.

#### **9. Portlovchi materiallar zavodi va Portlovchi materiallar omborini rekonstruksiya qilish:**

Asosiy ishlab chiqarish texnologik qurilmalar: **13 dona** sig'imlar o'rnatildi **100 foiz**, texnologik modullar **100 foizga** bajarildi hamda kompressorlar va parogeneratorlar o'rnatilgan bo'lib, bino va inshootlari qurilishi davom etmoqda.

Yordamchi uskuna va qurilmalarni (tashqi elektr ta'minoti, transformatorlar, tashki va ichki suv ta'minoti, texnologik chiqindi suvlarini qayta ishlovchi inshoot, qo'shimcha temir yo'l kesishmalari, YoMM, yordamchi materiallarni saqlash - tarqatish omborlari va suvni isitish tizimi) xarid qilish va o'rnatish ishlari olib borilmoqda.

2025-yilning birinchi choragida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

## 10. Vaqtinchalik avto va temir yo'llar

Tashqi kommunikatsiya va vaqtinchalik temir yo'l izlari qurilishi olib borilmoqda.

TIAGA ko'ra jami **45,6** km. temir yo'llar qurilishi rejalashtirilgan bulib shundan 01.07.2024y. holatiga qurilish ishlari umumiy qiymati **132,65** mlrd. so'mlik **41,6** km temir yo'llar to'liq qurilgan va elektrlashgan.

Joriy yilda "Qalmoqqir va Kolvevaya stansiyalari hamda ular orasidagi peregon", "Svinsovaya stantsiyasi", "Otvalnaya stantsiyasi" va "Fabrchnaya stantsiya"larining MPTS (signal va strelkalarni mikroprosessorli markazlashtirish) va ESSO (o'qlar hisobining elektron tizimi) ishga tushiriladi.

### II. Amalga oshiriladigan ishlar.

Tog'-kon sanoat va geologiya hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklari bilan birgalikda "**Yoshlik I**" konini o'zlashtirish" strategik investitsiya loyihasi bo'yicha yil yakuniga qadar **1089.4 mln dollar** jumladan "**Yoshlik I**" konini o'zlashtirish loyihasi bo'yicha **244,0 mln dollar** mablag'larni o'zlashtirish va obyektlarni belgilangan muddatlarda ishga tushirishni ta'minlash maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar belgilab olindi.

**"Yoshlik I" kareri, Portlovchi materiallar zavodi, ASU GTK, "TN-8", "TN-9", 8,2** km ichki avtomobil yo'llari, **4,12** km ichki karer temir yo'llar quriladi va elektrlashtriladi, **4** ta temir yo'l stansiyalarining mikroprosessorli markazi va o'qlar hisobining elektron tizimi, namunalarni kesish va tahlil qilish laboratoriyasi.

3) bo'sh tog' jismlarini tashuvchi TSikli oqim texnologiyasi ("TSPT-poroda") bo'yicha yil yakuniga qadar qurilish ishlari amalga oshiriladi.